

## **Bolalar She'riyatida Motivlarning Kompozitsion- Xususiyatlari**

---



SCIENCE BOX

**Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna**

BuxDU o'qituvchisi

### **Annotatsiya:**

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar she'rlari namunalarini o'rgatishning sifat va samaradorligi omillari haqida fikr yuritilgan. Ayniqsa, Vatan va vatanparvarlik mavzusidagi she'rlarida motivlarning kompozitsion-xususiyatlari ma'nolari tahliliga diqqat qaratilgan.

### **Kalit so'zlar:**

motiv, ramz, detal, dispozisiya, kompozitsiya, tasvir, ifoda, mavzu, omil

Bolalar tarbiyasi asosan ota-onalar va tarbiyachilar tomondan oshiriladi. Hali o'qish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan mutloqo bexabar bo'ladilar. Shunga qaramay, bizni qurshagan olamni tezroq bilib olishga uning sirlarni o'rganishga intiladilar. Unda oilada ota-onalar, bog'chalarda esa tarbiyachilar, maktabda esa o'qituvchilar yaqinda yordam beradilar, ya'ni ular badiiy asarlardan parchalar o'qishni, mazmun va mohiyatini tushunishni o'rganadilar. Badiiy kitoblarning rasmlarini rang-barang harflarini o'qish o'rganishga muvaffaq bo'ladilar. Ulg'ayib ketayotgan yosh avlodni komil insonlar qilib tarbiyalashda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo'lagi bo'lgan bolalar adabiyotining ham ahamiyati katta. Bolalar adabiyoti o'z oldiga kelajak avlodni jismonan baquvvat, ruhan pok, fikran sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bitimi ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tarbiyalashdek katta va murakkab vazifani qo'yganligi bilan ajralib turadi.

Shu nuqtai nazardan *motiv* – aniq tushuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Mashhur nemis olimi *Kurt Levin* motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi. Shunisi ajablanarliki, o'sha bir aniq vaziyat xususidagi turli shaxslarning baholari ham turlicha bo'ladi. Bundan tashqari, bir shaxsning o'zi ham o'zidagi holat, kayfiyatga bog'liq holda bir xil vaziyatni alohida hollarda turlicha idrok qilishga moyil bo'larkan. Shuning uchun ham odamning ayni paytdagi real harakatlarini o'sha ma'lum sharoitdagi ichki va tashqi stimullarga uning bergan bahosi yoki reaksiyasi sifatida qaramay, balki unda shunga o'xshash holatlarni idrok qilishga ichki bir hozirlik – dispozisiyaning mavjudligi bilan tushuntirish to'g'riroq bo'ladi.

Har qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Ya'ni, maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar paydo bo'ladi va aynan ularning tabiati va zaruratiga bog'liq tarzda xulq motivlari namoyon bo'ladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning ma'lum bir davrida, masalan, bog'cha yoshidan boshlab qoniqtirila boshlaydi. Bolaga sotib olib berilgan kitoblar, daftar va boshqa o'quv qurollari, ma'lum ta'lim maskanida tashkil etilgan shartsharoitlar va u yerdagi bevosita bilim olishga qaratilgan faoliyatning o'zi, bola uchun motiv o'rnini bosadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida yuzdan ortiq shoirlarning ko'plab xilma-xil mavzulardagi she'rlari berilga. Albatta, ularning har biridan ulug' maqsadlar ko'zlangan. Chunki she'r ham, avvalo, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni o'z mohiyatiga ko'ra jo'shqin daryoga qiyos qilsa bo'ladi. Daryo suvlaridan dalalar, dov-daraxtlar gullab-yashnasa, adabiyot inson qalbiga ezgulik urug'ini sepadi, uni hayotda to'g'ri yashashga, ulug' maqsadlar yo'lida kurashishga o'rgatadi

Umrning yo'li-yu, mazmuni,

Kaftimda sanoqsiz chiziqlar.

Kaftimning so'qmog'i, yo'llari.

Bekorchi damlarga qiziqmay,

Quyoshga cho'zganman qo'llarim.

Shunisi diqqatga sazovorki, qahramon o'z baxtini, taqdirini xalq va Vatan taqdiri bilan bog'laydi. Uning uchun ona va Vatan mushtarak tushunchalar bo'lib, ular oldida o'zini qarzdor his etadi. Chunki ona unga jon baxsh etgan bo'lsa, Vatan o'z quchog'ida avaylab o'stirmoqda. «Shu tufayli ona, yurt, bizga doim suyuksiz», deydi u

Insonda turli ishlarni bajarishini ta'minlovchi asosan ikki turdagi motiv bor: muvaffaqiyatga erishish motivi hamda mag'lubiyatdan qochish motivi. Odamlar ham u yoki bu turli faoliyatlarni erishishda qaysi motivga mo'ljal qilishlariga qarab farq qiladilar.

Adabiyotda kompozitsiya — asarni badiiy shakllantirishga xizmat qiladigan turli qismlarning holati, o'zaro bog'liqligi, voqea, xarakter-obrazlar, lirik chekinishlar, tafsilotlar bayoni va shu kabi ma'lum maqsadga bo'ysundiriladi. Asar kompozitsiyasining yaxlitligi uning asosiy shartidir. Kompozitsiya eng muhim tashkiliy qismdir san'at shakli, birlik va yaxlitlik ishini berish, uning elementlarini bir-biriga va butunga bo'ysundirish.

Quyosh bobo himmati,

Daryolarning qudrati,

Shamolning harakati,

Ona yerning mehnati

Ulkan do'stlik hurmati

Bu birlik shunchaki qayd qilinmaydi, balki uning zamirida do'stlik iplari bor degan yuksak ijtimoiy ma'no chiqariladi: Shunday mazmundagi she'rlar orqli o'quvchilarga do'stlik, mehr-oqibat, tabiatni sevish tuyg'ulari singdirilib boriladi. Bolalarning o'qish malakasini egallash usuli - bu badiiy matnni mustaqil ravishda chuqur estetik tahlil qilish, matnni ishora tizimi, asarni tasvirlar tizimi sifatida qabul qilish, badiiy obraz yaratish usullarini ko'rish, zavqni boshdan kechirish. matnni idrok etish, badiiy matnga o'z talqinlarini yaratishni xohlash va uni yaratish.

Bir nihol ekingmi Vatan bog'iga,  
Mehringni to'kingmi cho'l, yantog'iga,  
Gullarga chang-g'ubor qo'ngan chog'ida  
Arta biloldingmi chang-u g'uborni –  
Desalar, yurtdoshim, javobing bormi?

Bitta g'isht qo'ydingmi maydonlariga,  
Bir vassa o'ydingmi ayvonlariga,  
Bir misra qo'shdingmi dostonlariga,  
Kurab tashladingmi tomlardan qorni –  
Desalar, yurtdoshim, javobing bormi?

She'rd a lirik qahramon (shoir) yashayotgan o'lkani ng go'zalligi va boyligi shu qahramon tilidan shunday ta'riflanganki, yosh kitobxon uning shu o'lkaga bo'lgan cheksiz muhabbatini sezib turadi va undagi Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ulari uning ham qalbiga o'tadi.

Bu satrlar vatanning ona kabi yakka-yu yagonaligini, *"bir nihol ekdingmi vatan bog'iga"*, *"bitta g'ih t qo'ydingmi maydonlariga"*, kabi savollar bilan aks etgan she'rd a yosh kitobxon qalbida ona-vatan muqaddasligi tushunchasini shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Bir *vassa* o'ydingmi ayvonlariga,  
Bir misra qo'shdingmi dostonlariga,**

Shu o'rinda misradagi vassa so'zini lug'aviy ma'nosini ya'niy izohini so'raydi o'quvchi. **Vassa**, toqi - o'zbek me'morligida sinchkor binolarda keng qo'llaniladigan qurilish materiali. Vassa oqtol g'o'lalaridan tayyorlanib, binolar shiftiga qo'yilgan to'sin (bolor)lar ustiga zich teriladi. To'sinlarining ustiga *vassalar* terilgach, ustidan bo'yra yoki bordon yopiladi. Vassalar, ba'zan ohak bilan oqartiriladi yoki rang-barang bo'yoqlar bilan bo'yalib, gullar ishlanadi. Vassa juft imorat — to'sinlariga Vassalar terib ishlangan bino.

Vatan haqida qanchadan-qancha she'rlar, hikoyalar, dostonlar yozilgani hammamizga sir emas. O'z hissangni qo'shdingmi vatan uchun deya nazarda tutilyapti. Vatan tuprog'ini ko'zga surtish (tavof qilish) shunchaki gap emas, o'zini ushbu tuproq farzandi deb hisoblaydigan har bir kishining dastlabki insoniy burchi ekanligini ta'kidlaydi. Yosh kitobxonda yurtimizning dunyoga dong'i taralgan Urganch, Buxoro, Samarqand, Kesh, Toshkent singari shaharlari, undagi jahon tarixi va madaniyatining rivojlanishiga asos solgan allomalar bilan faxrlanish his-tuyg'ularini uyg'otadi.

Bu she'r yosh kitobxonlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usining yanada jo'sh urishiga, o'z tug'ilgan go'shasini dunyodagi boshqa "vatan"lardan ustun qo'yish hissining shakllanishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, Vatan mavzusi, zamon va makon tanlamaydi. Bu she'r o'zining mazmuni bilan hozirgi kunning dolzarb masalalarini ham o'z ichiga qamrab olganday taassurot qoldiradi. Xorijiy davlatlarga turli bahonalar bilan ketayotgan yoshlarimizga o'z vatanlariga sodiq bo'lish, xorijda orttirgan bilim va tajribalarini Ona-vatan ravnaqi yo'lida sarflash lozimligini yorqin ranglarda tasvirlab beradi.

Vatan — bu hamisha rohat farog'atda yallo qilib yuradigan g'aroyib bir maskan emas, balki ota bobolar hoki turobi yotgan muqaddas va tabarruk qadamjo ekanini uqtiradi.

U she'rlarida hayot dramalari, fojealarini shunday adolatli tarzda ifodalaydiki, oqibatda bunday she'rlar haqiqat va adolat jarchisi bo'lib tuyuladi, bedorlik va uyg'oqlikka undaydi. Satrlarda ehtiroslarning guvlab, to'lib-toshib kelayotgan shiddatli to'liqini lahzada beixtiyor sizni ham o'z oqimiga tortib qo'shib ketadi. Adolatsizlikka, ochko'zlikka, mahdudlikka qarshi bir isyon qo'zg'aydi ichingizda. Ona yurtga bo'lgan mehringizni oshiradi.

Bolalar adabiyoti so'z san'ati va tarbiya vositasidir. Bolalar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, yorqin obrazlarga boy, ulkan va porloq ishlariga ilhomlantiradigan bo'lishi zarur.

Tarixdan saboq olish, tegishli xulosa chiqarish uchun bular yoshlar, aholi ongiga yetkazilishi kerak. Biz ko'proq avvalgi uyg'onish davrlarimizning yutuqlarini faxr bilan e'tirof etib, negadir ularning inqirozi sabablari haqida gapirishni unchalik xushlamaymiz.

**Foydalanilga adabiyotlar:**

1. "Representation and Interpretation in Children's Poetry." Middle European Scientific Bulletin 2021  
Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna  
<https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/361>
2. Raising the attitude of primary school students to education as a value  
TN Saidovna, ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 2020  
[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=vkwU-IYAAAAJ&citation\\_for\\_view=vkwU-IYAAAAJ:u-x6o8ySG0sC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=vkwU-IYAAAAJ&citation_for_view=vkwU-IYAAAAJ:u-x6o8ySG0sC)
3. Didactic conditions for the formation of attitudes toward education as a value among primary school pupils  
NS Turdieva, Middle European Scientific Bulletin, 2021 - 37 цитирований  
[https://scholar.google.ru/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=vkwU-IYAAAAJ&citation\\_for\\_view=vkwU-IYAAAAJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=vkwU-IYAAAAJ&citation_for_view=vkwU-IYAAAAJ:2osOgNQ5qMEC)
4. O`rinova M.N. Artistic interpretation scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulletin, Volume-11, Issue Archive, April-2021